

MILLIY MANSUBLIK VA O'ZLIKNI ANGLASH DARAJASI

Maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida identiklik masalalarining psixologik, sotsiologik, antropologik, falsafiy va madaniy jihatlarini yoritilgan. Bir etnohududiy makonda istiqomat qilayotgan xalq va elatlarda milliy mansublik va o'zlikni anglashga bo'lgan ehtiyojiga madaniyat va tashqi ta'sirlar, ularning joylashuvi, iqlimi, ekologik vaziyati, siyosiy-geografik omillari tahlil qilingan. Shu bilan birgalikda O'zbekiston rivojlanishining zamonaviy bosqichida xalqlarning milliy o'zligini anglash jarayonlarining ijtimoiy dinamikasi va xalqaro doiradagi milliy tadqiqot markazlari masalalarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar. Davlat, mustaqillik, tarix, xalq, inson, huquq, erkinlik, ma'naviy qadriyatlar, din, urf-odatlar, an'analar, milliy mansublik, joylashuvi, iqlim, ekologik vaziyat, siyosiy-geografik omillar, madaniyat va tashqi ta'sir, millat, fuqarolik, jamoatchilik fikri

В статье описываются психологические, социологические, антропологические, философские и культурологические аспекты идентичности в системе социальных и гуманитарных наук. Анализируются культурные и внешние влияния, их местонахождение, климат, экологическая обстановка, политико-географические факторы на необходимость понимания национальной идентичности и самобытности народов и этносов, проживающих в этнотерриториальном пространстве. На современном этапе развития Узбекистана уделяется внимание социальной динамике процессов национального самосознания народов и национальных исследовательских центров на международной арене.

Ключевые слова. Государство, независимость, история, народ, человек, закон, свобода, духовные ценности, религия, обычаи, традиции, национальность, местонахождение, климат, экологическая ситуация, политико-географические факторы, культура и внешние воздействия, нация, гражданство, общественные мысли

The article describes the psychological, sociological, anthropological, philosophical and cultural aspects of identity in the system of social sciences and humanities. The article analyzes cultural and external influences, their location, climate, ecological situation, political and geographical factors on the need to understand the national identity and identity of peoples and ethnic groups living in the ethno-territorial space. At the present stage of development of Uzbekistan, attention is paid to the social dynamics of the processes of national self-consciousness of peoples and national research centers in the international arena.

Key words. State, independence, history, people, people, law, freedom, spiritual values, religion, customs, traditions, nationality, location, climate, ecological situation, political and geographical factors, culture and external influences, nation, citizenship, social thoughts.

O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi o'zbek xalqining, mamlakatimizda yashovchi barcha xalqlarning hayotidagi muhim tarixiy voqea bo'ldi. O'zbekistonning yangi tarixidagi hurriyat va mustaqillik, milliy tiklanish va taraqqiyot davrini boshlab berdi. Tarixan qisqa davr ichida O'zbekiston xalqi mamlakatning xalqaro hamjamiyatda munosib o'rin egallashi, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, milliy davlatchilik va ma'naviy

qadriyatlar, din, urf-odatlar va an'analarini qayta tiklash borasida katta yutuqlarga erishdi.

Mustaqillik yillarida xususan milliy identiklik tarkibidagi "milliy g'urur", "milliy tuyg'u", "o'zlikni anglash", "milliy mentalitet" tushunchalarini tadqiq etishning ilmiy doirasi kengaydi. Shu asosda O'zbekiston Respublikasi yosh avlodni xalqimizning ko'p asrlik an'analarini hurmat qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan islohotlar natijasida xalq identikligining milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, an'ana va qadriyatlarga hurmat kabi belgilari mustahkamlandi. Milliy identiklikning dinamik xususiyati muayyan bir etnohududiy makonda istiqomat qilayotgan xalq va elatlarda milliy mansublik va o'zlikni anglashga bo'lgan ehtiyojning yuksalishi bilan izohlanadi. Bunday ehtiyoj bugungi tarixiy taraqqiyot bosqichida adolatli davlat siyosati va jamiyat manfaatlarini asosida tobora rivojlanib, takomillashib bormoqda. Chunki har bir xalqning milliy o'zligini anglashi, uning milliy barqarorligini ta'minlaydigan omillardan biri sanaladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, shu bilan birga ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash"ni rag'batlantirishga doir muhim vazifalar belgilandi.


Har qanday jamiyat o'ziga xos kontent va strukturaga ega bo'lib, uning ijtimoiy xatti-harakatlari mazmuni, hayotiy shart-sharoitlarini ishlab chiqarish vositalari, aholining joylashuvi, iqlim, ekologik vaziyat, siyosiy-geografik omillar, madaniyat va tashqi ta'sir xususiyatlari belgilab beradi. Ammo xalqining identikligi va mental xususiyatlari ijtimoiy fanlar tizimi, xususan sotsiologiya yo'nalishida atroflicha va tizimli tarzda tadqiq etish orqali quyidagi masalalarga e'tibor qaratmoq lozim: "identiklik", "mentalitet", "sotsial xarakter" kabi tushunchalarni sotsiologik toifa sifatida anglashning asosiy jihatlari va turli ilmiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, milliy identiklik nazariyasining mohiyatini ochib berish; milliy identiklikning davriy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy omillar ta'sirida transformatsiyalashuvi hamda bu omillarning o'zaro bog'liqligini asoslab berish; xalq milliy identikligi xususiyatlarining sotsiomadaniy dinamik omil sifatidagi mohiyatini ochib berish va uning shakllanish mexanizmlarini aniqlash; axborotlashib borayotgan jamiyatda milliy identikligining barqaror va dinamik xususiyatlarini sotsiologik tadqiq etish va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; sotsiologik tadqiqot asosida milliy identiklik xususiyatlarining turmush tarzi, dunyoqarash, tafakkur tarzi, mentalitet va milliy qadriyatlarga ta'sirini o'rganish O'zbekiston rivojlanishining zamonaviy bosqichida xalqlarning milliy identiklashuvi jarayonlarining ijtimoiy dinamikasi va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida identiklik masalalarining psixologik, sotsiologik, antropologik, falsafiy va madaniy jihatlarini ilmiy asarlarning asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Etnik identiklik, milliy o'zlik masalalari bilan xalqaro doiradagi milliy tadqiqot markazlari va ilmiy-tekshirish institutlari shug'ullanib kelmoqda. Shulardan, Rossiya Fanlar akademiyasi qoshidagi Etnologiya va antropologiya instituti "Ijtimoiy ongning etnik, fuqarolik va boshqa formalarini tadqiq etish" bo'yicha, Sotsiologiya institutida tashkil etilgan "Millatlararo tadqiqot markazi"da "o'zgaruvchan jamiyatda davlat, fuqarolik, etnik va diniy identiklikning muvozanati va o'zaro faoliyati" masalalari bo'yicha, Buyuk Britaniyaning Kardiff shahridagi "Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha ilmiy-tekshirish kengashi" (ESRC, Economic and Social Research Council) etnik va diniy munosabatlarda identiklik masalalarini, Londondagi "Irqi munosabatlar instituti" (Institute of Race Relations) etnik guruhlarining ijtimoiy va huquqiy tengligi masalalari bilan Markaziy Osiyoni tadqiq etish Fransuz instituti (IFEAC - Institut francais d'etudes sur l'Asie centrale) Markaziy Osiyoda istiqomat qilayotgan xalqlarning madaniyati, turmush tarzi va etnik identikligi masalalari bilan shug'ullanadilar.

Bu kabi masalalar O'zbekistonda jamoatchilik fikrini muntazam ravishda ilmiy asoslangan holda tizimli o'rganish yo'lga qo'yilgan bo'lib, "Ijtimoiy fikr" Markazi faoliyatining asosiy yo'nalishlari jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi sohasida jamoatchilik fikrini o'rganish bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekistonda "Ijtimoiy fikr" Markazi 1997-yilda tashkil etilgan va shu yildan boshlab Markazning tadqiqot jamoasi butun mamlakat miqyosida birinchi bo'lib jamoatchilik fikrining sotsiologik so'rovlarini muntazam ravishda o'tkazib kelmoqda. Shuningdek, "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi jamiyat hayotining keng ko'lamdagi dolzarb masalalari yuzasidan jamoatchilik fikrini o'rganish sohasida yetakchi tadqiqot tashkiloti hisoblanadi. Markaz, o'zining yigirma yildan ortiqroq faoliyati davomida sotsiologiya fanidagi mavjud turli xil usullarga tayangan holda kompleks tadqiqotlar o'tkazib kelmoqda. Bu borada Shavkat Mirziyoyev Markaz faoliyatiga quyidagicha baho berib, jamoatchilik fikrini sotsiologik so'rovnoma asosida tadqiq qilish "...bu juda muhim ahamiyatga ega, chunki, islohotlarimizning natijalari, amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va aholining kayfiyati, avvalo, joylarda, birinchi navbatda mahallalarda yaqqol seziladi. Shu ma'noda, bunday so'rovnomalarni jamiyat hayotining ijtimoiy barometri deb atash mumkin" ligini ta'kidlaydi.

Shu kabi Markaz tomonidan o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomalardan birida, inson o'zining kimligini belgilashi uchun milliy, ham fuqarolik aynanligining birday muhimligini aniqlash maqsadida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomalardir. Bu so'rovnoma O'zbekiston aholisi o'zlarining milliy va fuqarolik mansubligining anglashlari mustaqillik yillaridagi o'zgarishlar (2013-2019) qiyosiy tahlil qilish dinamikasini aniqlash asosida o'rganilgan. O'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma O'zbekiston aholisi fuqarolikni his qilishining ifodalanganlik darajasi quyidagi savol yordamida aniqlanilgan: "Siz uchun nima muhim – millatingizmi yoki fuqarolingiz?" (1-rasm). Jamoatchilik fikri monitoringi natijasiga ko'ra, o'zbekistonliklar o'rtasida ular uchun millat ham, fuqarolik ham birdek muhimligi haqidagi qarashlar ustuvor ekanligi haqida so'z yuritishga imkon beradi – 58,5% (2018 yilda 59,5%). Shuningdek, "Millat" yoki "fuqarolik" tushunchalarining nisbati haqidagi ijtimoiy qarashlarning tahlili muhim tendentsiyalarni kuzatib borishga imkon beradi (faqat millat yoki faqat fuqarolik).

Masalan 2003 yildagi sotsiologik so'rovnoma ishtirok qilgan respondentlarning so'rov natijalarini monitoringiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2003-yilda fuqarolik millatga nisbatan muhimroq, deb hisoblovchi respondentlar sonining barqaror o'sishi (2018-2019) o'zgargan. Ya'ni 2018-2019-yilda so'rovlarda ishtirok etgan respondentlar o'zlari uchun



millatning muhimroq ekanligini qayd etishgan (25,0%).

1-rasm. "Siz uchun nima muhim – millatingizmi yoki fuqarolingiz?"

degan savolga respondentlar javoblarining taqsimlanishi, %

Tojik (82,9%), turkman (80,05%), o'zbek (58,9%) millatlari vakillari uchun fuqarolik va millat birdek muhimdir. Umuman olganda, tadqiqot natijalari o'zbekistonliklarda turli ijtimoiy omillardan qat'iy nazar, ham milliy, ham fuqaroviy aynanlikning tengligida yorqin ifodalangan yo'nalishdagi barqaror fuqarolik jamiyatining shakllanayotganligini aniqladi. Ayni vaqtda 2019-yildagi tadqiqotda ushbu tendensiyadagi o'zlari uchun milliy aynanlikni muhim deb hisoblovchi respondentlar sonining o'sishida ifodalanuvchi o'zgarishni kuzatish mumkin.

Shunday qilib, inson o'zining kimligini belgilashi ham milliy, ham fuqarolik aynanligining birday muhimligini ko'rsatib bermoqda. Fuqarolarning fuqaroviy o'zlikni anglashlari o'z Vataniga nisbatan his-tuyg'ularining emotsional darajasi jamiyatda fuqarolar totuvligining yorqin ko'rsatkichi hisoblanadi. Respondentlarning asosiy ko'pchiligi O'zbekiston fuqarolari sifatida g'urur tuyg'usini his qiladilar – 90,7% (2019 yilda 89,4%, 2017 yilda 92,2%). Bu tuyg'u ko'pchilik o'zbekistonliklar uchun o'zgarmasdan qolmoqda.

1-jadval

"Siz O'zbekiston fuqarosi hisoblanishingizdan, qanday tuyg'ularni his qilasz?" degan savolga respondentlar javoblarining taqsimlanishi

Javob variantlari	Yillar							
	2007	2008	2010	2013	2015	2016	2017	2019
G'urur	68,4	62,1	76,8	84,1	89,5	92,2	89,4	90,7
Qoniqish	25,3	31,3	17,7	13,9	9,4	5,4	9,5	8,0
Befarqlik	4,3	3,0	3,2	1,2	0,6	1,6	0,4	0,3
Javob berishga qiynalaman	3	3,6	2,3	0,8	0,5	0,8	0,7	1,0

Mintaqaviy kesimda, ayniqsa, sirdaryoliklar (100%), qashqadaryoliklar (99,0%), surxondaryoliklar (98,8%), buxoroliklar (96,8%) g'urur tuyg'usini ko'proq his qiladilar.

2-jadval

"Siz O'zbekiston fuqarosi hisoblanishingizdan, qanday tuyg'ularni his qilasz?" degan savolga respondentlar javoblarining mintaqaviy kesimda taqsimlanishiga ko'ra, % quyidagicha ko'rsatgichga egaligi aniqlanilgan.

Mintaqalar	Javob variantlari							
	G'urur		Qoniqish		Befarqlik		Javob berishga qiynalaman	
	2017	2018	2017	2018	2017	0,3	2017	2018
Jami	89,4	90,7	9,5	8,0	0,4	2,3	0,7	1,0
Toshkent shahri	74,3	87,2	23,3	10,5	1,2	-	1,2	-
Qoraqalpog'iston Respublikasi	90,5	85,5	9,5	14,5	-	-	-	-
Andijon	83,0	90,1	15,0	9,9	1,0	-	1,0	-
Buxoro	96,8	96,8	1,6	3,2	1,6	-	-	-
Jizzax	84,1	77,2	15,9	20,5	-	-	-	2,3

Qashqadaryo	84,8	99,0	15,2	1,0	-	-	-	-
Navoiy	93,9	84,8	6,1	15,2	-	-	-	-
Namangan	87,8	80,0	12,2	14,4	-	--	-	5,6
Samarqand	100	92,7	-	6,5	-	-	-	0,8
Surxondaryo	90,4	98,8	7,2	-	-	-	2,4	1,2
Sirdaryo	89,3	100,0	10,7	-	-	-	-	-
Toshkent	90,8	90,8	8,2	8,2	1,0	-	-	1,0
Farg'ona	92,6	95,1	4,9	3,3	-	0,8	2,5	0,8
Xorazm	93,5	82,1	4,9	16,4	-	-	1,6	1,6

So'rovnomalarda aniqlanishicha, O'zbekistonda istiqomat qiluvchi, barcha yosh toifalarining vakillari yoshidan qat'iy nazar, o'zini O'zbekiston fuqarosi sifatida anglashdan g'urur va qoniqish tuyg'usini his qilishlari aniqlangan. Shuningdek, bir necha yillik so'rovlar mobaynida olingan ma'lumotlar natijalariga ko'ra bu tuyg'ular barqaror qolmoqda. Ushbu ma'lumotlarning muhimligi va ahamiyati, eng avvalo, shundan iboratki, barcha avlodlar muhim fuqaroviylik va vatanparvarlik tuyg'usiga egadirlar.

Sotsiologik tadqiqot natijalarida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbekistonliklarda fuqaroviylik va vatanparvarlik tuyg'usi yuqori darajada ifodalangan deyishga imkon beradi.

Insonning milliy o'zligini tiklashi nafaqat o'zbeklar uchun, vaholangki, shu o'lkada yashayotgan barcha O'zbekiston xalqi uchun ham taalluqlidir. Ular ham shu Vatan fidoiylari, himoyachilari, vatanparvarlari bo'lmog'i, milliy o'zlikni tushunib, o'zlariga chuqurroq singdirmoqlari lozim. Insonning o'z xalqiga mansubligi uning qoniga, millatiga qarab emas, balki ushbu xalq qadriyatlarini e'zozlashiga ko'ra belgilanadi. Zero, o'zligini to'liq anglagan shaxsgina boshqa xalq vakillarini, ularning urf-odatlarini, an'alarini hurmat qilishi, e'zozlashi, avaylab asrash mumkin. Shu sababli o'zlikni anglash so'zda emas, balki amalda kasb bilan bog'liq va hayotiy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarish, intellektual rivojlanish va o'zini ma'naviy yuksaltirish uchun yoki avlodga zarur iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy shart-sharoitlarni yaratib bergandagina undan kutilgan samarani, natijani olishi haqidagi haqiqatni chuqurroq anglay boshlaymiz.

Shundan kelib chiqib xalqning hayot darajasini ko'tarish, dunyodagi ilg'or qadriyatlarga intilish, ijtimoiy barqarorlik sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohatlarni amalga oshirish milliy g'oya hamda milliy mafkuraning asosini tashkil qiladi. Bu qarash xalqning milliy o'zligini anglashining o'sishiga olib keladi. Shu bilan birga ratsion-pragmatik qadriyatlarni singdirib demokratik, fuqarolik jamiyati, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish imkonini vujudga keltiradi.

Jamiyat hayoti barqarorligi yurti tinchligi, millatlar va elatlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik tamoyillari bilan asosiy o'rin egallaydi. Chunki aholi turli xil kelishmovchilik, to's-to'polonlardan holi bo'lmas ekan, taraqqiyot to'g'risida fikr yuritmasa ham bo'ladi. Insoniyat tarixi jamiyat taraqqiyoti jarayonida bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tar ekan, u turli sohalarda bo'lganidek, g'oyaviy mafkuraviy sohalarda muayyan muammolarni hal qilishi talab etiladi.

Inson ehtiyoji uning manfaati bilan chambarchas bog'liq. Ehtiyoj moddiy, ma'naviy va mafkuraviy ahamiyatga ega bo'lib, tanlangan g'oya va qarashlar uning chegara ko'lamini belgilab beradi. G'oya o'z navbatida anglashga bo'lgan ehtiyojlarni vujudga

keltiradi. Davrlar mobaynida jamiyatlarning taraqqiyoti doimiy yangilanib boradigan ilmiy-falsafiy dunyoqarashga asoslanib, bunda istiqomat qilayotgan xalqlarning milliy xarakteri, ruhiyati, madaniyati va ma'naviyatini belgilab bergan. G'oyani hayotga tadbqiq etish identiklikning turli shakllari orqali mazmunan boyitiladi.

Jamiyatda rivojlanish davom etgan sari bunday jarayonlar yanada takomillashib boraveradi. Millat o'zligini anglagan taqdirdagina yuksak o'zgarishlar qila olishga qodir bo'ladi. Milliy identiklik jamiyat taraqqiyotida o'zining amal qilish, shakllanish, rivojlanish qonunlariga ega. Insonlardagi aynanlik jarayonlarini tarixiy yoki sotsial xotira bilan takomillashtirib borish, keyinchalik ularda fuqarolik pozitsiyasini belgilashga olib kelgan.

Milliy o'zlikni anglash yangi tarkib topgan jamiyat va davlatlarning istiqbolini ta'minlashda o'zidagi kuch va imkoniyatlar mavjud ekanligini, uning o'zi qanday vazifalarni amalga oshirishi, nima ish qilishi lozim va zarurligini ongli ravishda tushunib yetishdan ham iboratdir. Demak, milliy o'zlikni anglash har bir millat a'zosiga millat istiqboli hamda xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni, milliy manfaatlarni himoya qilish, rivojlantirish, milliy birlik va hamjihatlikni ta'minlashdek mas'uliyatni yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28-12-2018. <https://president.uz/uz/lists/view/228>.
2. Kadirova X.B. Qoraqalpoq xalqining milliy identik xususiyatlari.sots.fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.avtoreferati. T.: 2020.
3. <https://ijtimoiyfikr.uz>.
4. Kadirova H., Akhmedova F. Sociological Analysis of the Nation's Identity, the Levels of Feeling the National Identity in Uzbekistan. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE)ISSN: 2278-3075, Volume-9, Issue-1, November 2019. P.3167-3172.
5. Тхагапсоев Х.Г. Идентичность как философская категория // Гуманитарий Юга России. 2012. №1.
6. Буденкова В.Е., Савельева Е.Н. Идентичность как предмет теоретико-методологического анализа: модели и подходы // Вестн. Том. гос. ун-та. Культурология и искусствоведение. 2016. №1 (21).
7. Астафьева О.Н. Национально-культурная идентичность в условиях глобализации: сложный вектор развития // Вестник МГУКИ. 2016. №5 (73).
8. Воронина М.Д. Факторы, влияющие на формирование национально-культурные идентичности // Коммуникология: электронный научный журнал. 2017. №1.